

## Oq yo'l sizga aziz bitiruvchilar

Joriy yilning 26 iyun kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining rektorati favvorasi yonida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti bitiruvchi talabalariga, bakalavr darajali diplom taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirda institut rektori O'ktam Pardaevich Umurzoqov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Mirzaev Bahodir Suyunovich, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Shavozov Qodirjon Ochilovich va fakultet dekanlari hamda ota-onalar tashrif buyurishdi. Institut rektori O'ktam Pardaevich Umurzoqov bitiruvchi talabalarni tabriklab, tadbirni kirish so'zi bilan ochib berdi. Fakultet dekani Muqimov Zarif Majlisovich talabalarni tabriklab, institut rektorining diplom berish to'g'risidagi buyrug'ini o'qib eshittirdi va talabalariga diplom taqdim etildi. So'ng talabalarga oq yo'l va kelgusi ishlarida o'lkan zafarlar tilashdi. 179 nafar bitiruvchi talabalardan 21 nafari imtiyozli qizil diplomga ega bo'lishdi. Tadbir juda qiziqarli bo'lib o'tdi.



**"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani o'rinbosari H.Eshova ma'lumoti**